Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321194

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

IJTIMOIY TARMOQLARNING BUGUNGI KUNDA HAYOTIMIZGA TA'SIRI

Chorshanbayev Umurzoq
Guliston davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya”kafedrasi o’qituvchisi
umurzokchorshanbayev@gmail.com
Suvonqulova Zarinabonu
Guliston davlat universiteti " Rakamli iqtisodiyot va innovatsiyalar”fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda qudratli axborot quroliga aylanib borayotganligi , hamda yoshlarning qalbi, ongi ruhiyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi yoritib o‘tilgan.Shunindek,turli tuman g‘oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarining avj olishini e'tiborda qoldirmasligimiz bilan biz istiqbolda ma'naviy barkamol insonni,ruhan sog‘lom avlodni tarbiyalashga erishishimiz ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, mafkura,modernizatsiya,su'niy olam, inson omili, ommaviy axborot vositalari.

Kirish:

Ijtiyoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, Twitter, TikTok, va boshqalar) zamonaviy hayotda muhim rol o‘ynay boshladi. Ular nafaqat odamlar o‘rtasida muloqotni osonlashtiradi, balki yangi axborot tarqatish va ijodiy o‘zgarishlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ammo ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda insoniyat uchun nafaqat foydali, balki salbiy ta'sirlar ham keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga ta'siri turli jihatlari bilan tahlil qilinadi.

Internet-bu global komputer tarmog‘i bo‘lib u foydalanuvchilarga ulkan erkinliklarni beradi.Bilamizki, 21-asr axborot texnalogiyalari asri, shunday ekan zamonaviy taraqqiyot bilan hamnafas bo‘lishimiz kerakligi hech kimga sir emas.Har bir sohada yangi texnalogiyalarni hayotga keng targ‘ib qilinayotgani ham ijtimoiy hayotimizga bir qator yengiliklar berayotgani ham albatta quvonarli holat.Lekin, tan olishi kerakki bunday qulayliklardan noto‘g‘ri maqsadda foydalanayotganlar ham talaygina.

Ma'lumotlarni uzatish , ta'lim olish , ko‘ngil ochar tarmoqlar va h.k. Internet haqida gap ketar ekan , ijtimoiy tarmoqlarni gapirmaslikning umuman iloji yo‘q. Bu haqida Beruniy Sultonovich Alimov (bloger filolgiya fanlar doktori) o‘zining " Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imidjini oshirishda roli " nomli maqolasida quyidagicha fikr yuritadi."Ijtimoiy tarmoqlar aslida nimaga kerak degan savolga aniq javob yo‘q ".

Mantiqan "Insonlar o‘rtasidagi muloqatni ta'minlash ,turli dunyo xabarlaridan boxabar etish, do‘st ortirish " kabi maqsadlari borligini bilsak bo‘ladi. Ammo ayta olamizki, kundan kunga ijtimoiy tarmoqlarning foydasidan ko‘ra zarari ortib bormoqda.

Biz qayerga qarab ketyabmiz , bizdan olimlar kashfiyotchilar dunyoni o‘zgartiradigan insonlar chiqishi o‘tmishdagi chiroyli gaplarga aylanayotgandek go‘yo ,aytishadi-ku , " Har 100 yildan dunyoni o‘zgartiradigan va jaholotga , adolatsizlikka qarshi chiqaradigan bir inson dunyoga keladi"- deb . Biroq hozir esa yillar o‘tgan sayin internet tezligi 1G , 2G , 3G, 4G va hakozalarni ko‘payishini tomosha qilishdan boshqaga yaramaydigan insonlar jamiyati shakllanib borayotganini sezmayotgandekmiz.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Ma'naviy -ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini yanada oshirish" borasida jamoatchilik bilan uchrashuvlarning birida

Published: 23.12.2024
Cite this article: Chorshanbayev Umurzoq, Suvonqulova Zarinabonu (2024). Ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kunda hayotimizga ta'siri. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321194
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

"Yoshlarimizni telefon tarbiyalayapti", - deb bejizga kuyunib so‘zlamadilar.Chunki hozirgi kunda qulayliklar , xususan, komputer qurilmalari va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat hali o‘z aqliy qobilyatini mustahkamlamagan yoshlar balki, hayotning oq-qorasini , ko‘pini ko‘rib qo‘ygan yetuklik davridagi insonlarning ham ko‘pchiligini o‘z domiga salbiy ma'noda tortib ketmoqda. Buni biz hayotimizning turli jabhalarida ko‘rishimiz mumkin.

Odamlar biror joyda to‘planishib qolishsa yoki ikki kishi o‘zaro suhbatlashib qolishsa avvalgidek samimiy bemalol , dildan suhbatlasha olmayapti.Buning sababi ularda o‘zaro suhbatdan ko‘ra "qiziqroq" narsa ya'ni telefon bor.Bu insonlarni yuzma-yuz turib bir-birini dardiga malham muammolariga maslahat olish kabi qadriyatlarning so‘nib borishiga , natijada esa isonni yolg‘izlikka mahkum etib qo‘ymoqda.

Bundan tashqari oddiy oilada bola yig‘layapti, uni ota - onasi ovutish maqsadida telefon berishadi.Bola shu narsaga o‘rganib qolyapti. Kun sayin yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik shu tarzda ortib bormoqda.

Internetning shiddati butun dunyo aholisini o‘z domiga tortayotgan bir paytda axborot xurujlarining rivojlanish jarayoni ham avj pallasiga chiqdi.Oqibatda butun dunyoni o‘rgimchak to‘ridek qamrab olmoqda .Mutaxasislarning xulosalariga ko‘ra , " 35 yoshgacha bo‘lgan aholining 60 % axborot -kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimidan keng foydalanmoqda , ularning eng faol qismini 18-24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi ". Oqibatda turli xil kasalliklar , xususan , ko‘z kasalliklari , stress , semizlik , ichak kasaliklari ortib bormoqda .Bundan tashqari ko‘plab jinoyatlar ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.Bunga asosiy sabab nimada? - degan savol shubhasiz paydo bo‘ladi.

Menimcha, ijtimoiy tarmoqlarni haddan tashqari ko‘p foydalanish deb o‘ylayman. Ijtimoiy tarmoqlarda nomaqbul yoki zararli kontentga , jumladan , zo‘ravonlik ochiq-oydin til yoki grafik tasvirlarga duch kelishi mumkin , bu ularning hissiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.Ayniqsa bazi bolalar ovqatlanish vaqtida ham uxlash oldida ham telefondan ko‘p foydalanishi kuzatilmoqda.

Hozirgi rivojlanayotgan mamlakatimizda bolalar shu tarzda ulg‘ayishyapti.Bugungi kunda o‘spirin o‘ziga kerak bo‘lgan ma'lumotni ijtimoiy tarmoqlar turganda kutubxonaga borib kitobdan yoki kitob sotib olib izlamaydi. Komputer o‘yinlari turli xil jangovor kinolar yoki videolar o‘ylashimcha , ijobiy foyda keltirmaydi. Lekin ayta olamanki, ijtimoiy tarmoqlarning foydasi yo‘q emas. Ammo hamma narsaning me'yori bo‘lgandek , foydalanishning o‘ziga xos cheklovlari bor.

Muammoni hal qilish yo‘llari.

Komputer o‘yinlarining jozibadorligiga qarshi turish qiyin va ehtimol kerak emas. Ammo o‘smir qanday o‘ynayotganini kuzatish kerak. Mamlakatimiz hududiga kirib kelayotgan , axborot xurujlaridan har doim ogoh bo‘lib , yoshlarning ongi va ichki dunyosida kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozim. Yoshlarni axborot xurujlari , hozirgi kunning global muammolaridan biri bo‘lib kelayotgan"Ommaviy madaniyat " ta'siridan himoya qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyatini oshirish kerak. ijtimoiy tarmoqlar orqali ota-onalarga va katta yoshdagi kishilarga telefon , komputer xullas maishiy texnikalarning barcha zararli tomonlarini ko‘rsatib , internet tarmoqlaridan unumli foydalanish tizimini va dunyoviy ilmlarni egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yanada ko‘proq yaratib berish kerak.

Fikr va mulohaza:

· Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy ta'siri:

· Axborot va bilim almashish: Ijtimoiy tarmoqlar odamlarning bir-biriga axborot yetkazish va bilim almashish imkoniyatini yaratadi. Ular yordamida masofaviy ta'lim, onlayn treninglar va boshqa o‘qitish usullari ko‘paygan.

· Jamiyatni birlashtirish: Tarmoqlar odamlar orasida yangi ijtimoiy bog‘lanishlarni yaratadi. Ular dunyoning turli burchaklarida yashovchi insonlarni birlashtirib, global muloqot va hamkorlikni mustahkamlaydi.

· Biznes va marketing imkoniyatlari: Ijtimoiy tarmoqlar kompaniyalar va kichik tadbirkorlar uchun marketing vositasi sifatida ishlatilmoqda. Reklama, brend yaratish va mahsulotlar tarqatishning samarali usullari sifatida keng tarqalgan.

· Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri:

· Psixologik ta'sir: Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘pincha odamlar o‘zlarining mukammal hayotlarini ko‘rsatishga harakat qiladilar, bu esa boshqalar orasida o‘zini past baholash, depressiya va xavotirni keltirib chiqarishi mumkin.

· Yolg‘on va manipulyatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar ko‘pincha yolg‘on axborot va manipulyatsiyalar uchun platforma bo‘lib qoladi, bu esa jamoatchilik fikriga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

· Maxfiylik muammolari: Shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi ko‘plab ijtimoiy tarmoqlarda xavf ostida qolmoqda. Foydalanuvchilar o‘zlarining shaxsiy ma'lumotlarini osongina tarqatishi va ular noto‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa: Ijtiyoiy tarmoqlar bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ular insonlar orasidagi muloqotni, axborot almashishni va ijtimoiy tarmoqda o‘zini ifoda etishni osonlashtiradi. Ammo ularning salbiy ta'sirlari, ayniqsa, psixologik va shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligiga bo‘lgan xavotirlar ham mavjud. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish uchun ularni ehtiyotkorlik bilan va mas'uliyat bilan boshqarish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kuzio, T. (2021). The Social Media Effect: Impact on Society, Psychology, and Technology. Oxford University Press.
2. Boyd, D. (2014). It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press.
3. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). "Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media". Business Horizons, 53(1), 59–68.
4. Gerding, A. (2020). Social Media and Society: A Global Perspective. Cambridge University Press.
5. Ippolito, M. (2017). The Dark Side of Social Media: Understanding the Risks and Realities. Routledge.
6. Smith, M., & Duggan, M. (2013). Online Dating & Relationships. Pew Research Center.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI LINGVISTIK TUSHUNCHALARNI O‘RGATISH METODIKASI

Shodiyeva Mehribon Amin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli texnologiyalardan foydalanishning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, o‘qituvchilarni ushbu jarayonga tayyorlash,